

**Oysafar MAJIDOVA,**

*O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa va mantiq kafedrasida dotsent v.b., falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: oysafar72@gmail.com*

*Tel: 99.838 72 15*

*Falsafa f.n.dotsent D.Islomova taqrizchi asosida*

## **IBN SINO INSON, UNING AHLOQIY FAZILATLARI HAQIDA**

Annotatsiya

Ushbu maqolada, buyuk mutafakkir Ibn Sino falsafasida inson, uning ahloqiy fazilatlari mantiqiy tahlil qilinadi. Ibn Sinoning "Risolai axloq", "Tib konunlari" "Falsafiy qissalar" asarlarida insonni boshqa jonivorlardan ajratib turuvchi akliy faoliyati, nafsoniy kuvvatlari, ruxiyati uning oliy mavjudot bo'lishligini asoslashga asosiy urg'u qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson, fazilat, ahloq, odat. insonparvarlik, xalollik, saxiylik, oqko'ngililik, akliy teranlik, sabr-toqat.

## **ИБН СИНО О ЧЕЛОВЕКЕ И ЕГО ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВАХ**

Аннотация

В данной статье в философии великого мыслителя Ибн Сины логически анализируются человек и его нравственные качества. В произведениях Ибн Сины «Этические трактаты», «Медицинские законы», «Философские рассказы» основной упор делается на обоснование того факта, что он является высшим существом, его психической деятельности, эмоциональной силы и духа, которые отличают человека от других животных.

**Ключевые слова:** Человек, добродетель, мораль, привычка. человечность, честность, щедрость, великодушие, интеллектуальная глубина, терпение

## **IBN SINO ABOUT MAN AND HIS MORAL QUALITIES**

Annotation

In this article, in the philosophy of the great thinker Ibn Sina, man and his moral qualities are logically analyzed. In Ibn Sina's works "Ethical Treatises", "Medical Laws", "Philosophical Stories" the main emphasis is on substantiating the fact that he is a supreme being, his mental activity, emotional strength and spirit, which distinguish man from other animals.

**Key words:** Person, virtue, morality, habit. humanity, honesty, generosity, generosity, intellectual depth, patience.

**Kirish.** Ma'lumki, har bir tarixiy davr, har bir jamiyat, o'z ahloqiy ideali va unga muvofiq tarbiya nazariyasi va tizimini yaratadi. Jamiyat nafaqat ustuvor g'oyasiz, balki oqilona tarbiya tizimisiz barqaror bo'la olmaydi. Tarbiya jamiyatning ahloqiy, ma'naviy qiyofasi, jamiyat a'zolarining xulqi, davlat fuqorolarining tartib-intizomi, turmush tarzining asosini tashkil qiladi. Inson – Ibn Sino falsafasining muxim tarkibiy qismi bulib, unda inson fe'l-atvori fakat shaxsiy xususiyatlari bilan emas, balki uni o'rab turgan va faoliyatining muayyan qirralarini izoxlaydigan shart-sharoit, ijtimoiy-tarixiy voqelik ta'siri bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Atrofimizni o'rab turgan mavjudlik bir yaxlit olamdan iborat bulib, shaxs uning kichik bo'lagi xisoblanadi. Shuningdek, mutafakkir ta'kidlashicha, shaxs fikr yuritish orkali tabiatga sezilarli ravishda ta'sir etishga qodir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dunyo va O'zbekistonda Ibn Sino merosiga oid adabiyotlar tahlili, uning ijodiy faoliyatida barcha sohalarni qamrab olganidan dalolat beradi. Rossiya sharqshunos olimi A.Smironov o'z tadqiqotida shunday deydi, Ibn Sino falsafiy qarashlarida inson va borliqni ayri-ayri holda emas, balki o'zaro chambarchas bog'liqligini tadqiq etib, shaxsning nafaqat jismoniy va aqliy qobiliyatlari, balki ruhiy xislatlarini imkoniyatlarini o'rganish insonni borliq sifatida o'rganishning asosini tushuntirishga harakat qilganligini e'tirof etadi[1].

Markaziy Osiyo davlatlari xususan, Tojikistonda Ibn Sinoning falsafiy, ilmiy, ahloqiy, estetik, badiy qarashlarining tahlili olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining bosh mavzusi bo'lsa, Qozog'istonda uning merosi asosan al Farobiy ta'limoti bilan qiyosiy o'rganiladi. A.Qayumov, U. Karimov axloq kategoriyasiga Ibn Sino yaxshilik va yomonlikni, lazzat, donolik saxiylik sevgi-muhabbat, kamtarlik azob-uqubat va shu kabilarni kiritganligini o'z tadqiqotlarida ta'kidlaydi[2]. A.Irisov Ibn Sino falsafiy qissalarini tarjima qilish orqali mutafakkir uzining ilg'or axloqiy goyalari bilan insonlar o'rtasidagi eng olijanob, yuksak darajada rivojlangan chinakam insoniy fazilatlar har qanday davr uchun dolzarbligini yo'qatmasligini ifodalaydi[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ibn Sino fikricha, inson kiyofasini bezovchi, uning ichki va tashqi go'zalligini namoyon etib turuvchi bebaxo fazilatlar: insonparvarlik, oddiylik, xalollik, saxiylik, oqko'ngililik, akliy teranlik, sabr-toqat va maksad sari intilish kabilarda nazarda tutiladi. Umaman, inson fazilatlari va ahloq haqida gapirar ekanmiz, Forobiy va Beruniy ilmiy merosida ham bu masala o'zining yorqin ifodasini topganligini kuzatamiz. Shark mutafakkirlari, xususan Ibn Sino, shaxsni kamol topishida uning ma'naviy xazinasini bo'lgan ko'ngil olamiga, ruhiy olamiga

juda katta e'tibor beradi. Insonning ahloqiy fazilatini ilmiy-tadqiqot doirasida o'rganishdan maqsad:

Millatning bugungi yoshlarini barkamol shaxs va komil inson bo'lishiga erishishi uchun, ajdodlar tomonidan tarbiya borasidagi asarlarni o'rgatishsh;

Insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu fan, ahamiyatini anglatish;

Insonlar fikr doirasini kengaytirishi bilan ta'lim-tarbiyada, bilish ko'niqmalarini shakllantirishdan iboratdir.

**Tahlil va natijalar.** Jamiyatda shaxsga insoniylik va barkamollikka xos barcha hislatlar va fazilatlar tarbiya orqali singdiriladi va rivojlanadi. Zero, tarbiya borasida vorisligi bo'lmagan millatda g'urur tuyg'usi, milliy izzat-nafsi shakllanmaydi. Ibn Sino fikricha, «Tabiatda nimaiki mavjud bo'lsa, o'z tabiatiga ko'ra, kamolotga intiladi. Mana shu (kamolotga) intilish, o'z mohiyatiga ko'ra yaxshilikdir. Narsa kamolotga intilib, nuqsonlardan qochadi», predmetlarga xos bo'lgan nuqsonlar uning uchun yomonlikdir. «Har qanday predmetning ikki jihati bor,- deydi u, - bu faollik va passivlik jihatlaridir»[4]. Mutafakkir "Risolai axloq" asarida: axloqda yaxshilik va yomonlik, lazzat va azob – uqubat, bosh rol ni o'ynaydi, u insonning barcha yomon fazilatlarini yomonlik kategoriyasiga kiritadi.[5]. Ibn Sino "Risolai axloq" asarida shunday yozadi: "Axloq ilmi insonlarning yaxshi hulqlarga chaqirib, yomon hulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi hulqlarning yaxshiligini yomon hulqlarning yomonligini bayon qiladigan, bildiradigan bir ilmdir. Har kim axloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxirotda sharofatlik bo'lur. Axloqli yaxshi kishilar dushmanlarini ham osonlik bilan o'zlariga do'st qilurlar. Insonlarning hayvonlardan farqlari, ayrimlari

aql, ilm, soʻz, adab, fikr, axloq iladur. Shuning uchun dunyoda “chin inson boʻlurman degan kishilarga bu ilmni oʻqimak, axloq yoʻllarini oʻrganmak, yaxshi hulq qaysi, yomon xulq qaysi-bilmak, bir-biridan ayirmak lozimdir. Agar bir kishining oʻzidan, ishidan, soʻzidan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaxshi xulq deyilur. Agar ozor topadugʻon boʻlsalar yomon xulq deb atalur”[6].

Mutafakkir adolat mezoniga ham alohida eʼtibor bergan: «Adolat, muhim axloqiy xislat boʻlib, u odamning uch istagi – toqat, jasurlik va donolik bilan paydo boʻladi, ushbu fazilatlariga ega boʻlgan odam, oʻzini yaramas ishlardan saqlay oladi» – deydi Ibn Sino[7]. Sharqshunos olim A.Irisov mutafakkirning «Hay ibn Yaqzon» asari haqida shunday deydi: kishilarning did – farosatini shakllantirishi va fikr doirasini kengaytirishi bilan taʼlim – tarbiyada katta ahamiyatga egadir[8]. Ibn Sino bu asarida ilm – maʼrifatni oʻrganishga kirishishi natijasida koʻzi ochilgani, uning natijasida Aql («Hay ibn Yaqzon») koʻziga koʻringani va ilm ham unga oʻz jamolini namoyon qilganini hikoya qilar ekan, ilm-aqlni - oʻlmaydigan uygʻoq, qarimaydigan, yosh, beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur boʻlgan va bilishi mumkin boʻlgan narsalarni oʻqishga kirishgani, bu yoʻlda aqlni ishga solib, oʻzini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarni bilib olganini qayd etadi. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql – tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, oʻzligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina boʻlib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatli ekanligini eʼtirof etgan[9].

Ibn Sinoning axloqiy qarashlari uning siyosiy, huquqiy va estetik gʻoyalari bilan uygʻunlashib ketgan. Ular mutafakkirning dunyoqarashida oʻziga xos eʼtiborli salohiyatga ega. Allomaga koʻra, inson zoti hayvonlardan tubdan farqlanib, bir-biridan ajralgan, tanho holda baxt-saodatga erisha olmaydi. U oʻzining moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini boshqalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Hayotni davom ettirish maqsadida odamlar mehnat taqsimotiga asoslangan jamoalarga birlashishga majbur boʻladilar. Hamkorlikka erishish esa qonun va adolatning qaror topishini taqozo qiladi. Qonun va adolat tantanasini taʼminlash uchun hukmdorlar zarur boʻlib, ular odamlarga taʼsirchan nutq bilan murojaat eta bilishi va ularni qonunga rioya etishlarini talab qila olishlari zarur sanaladi. Ular bu borada kishilarni va ularning qarashlarini boshqarishsiz qoldirmasliklari lozim, aks holda, ular oʻrtasida oʻzaro nizo va kelishmovchiliklar paydo boʻladi. Natijada, har kim oʻziga foydali narsani adolatli, zararli narsani esa adolatsizlikning namunasi deb hisoblashi mumkin.

Hukmdor boʻlish oʻta masʼuliyatli burchdir. Jamoani boshqarish, unga toʻgʻri yoʻlni koʻrsatib berishdan avval bunday shaxs oʻz xulq-atvorini oʻziga itoat ettira olgan boʻlishi shart. Axloq-odobda barcha fuqarolarga ibrat-namuna boʻla oladigan insongina boshqalarga hukmdor boʻlishi mumkin. Dono rahbarlar, eʼtiborli hukmdorlar oʻz fuqarolarini ezgu niyat, ezgu ishlarga odatlantirib borib, ularning oʻzlarini yuksak fazilatlar sohiblari qilib tarbiyalaydilar. Oʻzgaralar esa odamlarda xunuk illatlarning shakllantirishga yoʻl ochib berib, ularning oʻzlarini betafiq kimsalarga aylatiradilar[10].

Inson barcha jonzotlar kabi oʻz hayotini havf-xatarlardan muhofaza qilishga intiladi. Bordi-yu, jamiyatda hamma odamlar boy-badavlat boʻlib qolsalar, oʻzaro toʻqnashuvlar, nizolar natijasida jamiyat hayoti, qonun ustuvorligi va adolat meyorlari tanazzulga yuz tutadi. Barcha odamlar yoppasiga qashshoqlarga aylanib qolgan taqdirda esa bunday vaziyat tufayli ular halokatga uchragan boʻlar edilar[11].

Demak, Ibn Sinoga koʻra, har bir odam jamiyatda mavjud ijtimoiy-iktisodiy maqomga ega ekanligidan mamnun boʻlmogʻi lozim. Boy-badavlat kishi erishgan maqomi orqali unda yetishmaydigan aql-zakovat va taʼlim-tarbiya kentiklarini qoplaganligiga, maʼrifatli kambagʻal esa, oʻz holatini uning ahvoli bilan qiyoslab koʻrib, unga nisbatan bir-muncha durustroq mavqega ega ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim. Oʻz kasb-kori orqali kundalik yegulik nonini topayotgan usta cheksiz holatlarga ega hukmdorga, katta boyliklar sohibi sanalmish boy kishiga hech qachon ortiqcha havas qilib yashamaydi, deb uqtiradi Ibn Sino[12].

Ijtimoiy adolat — bu jamiyat aʼzolarini turli yoʻl va vositalar orqali teng holatda saqlashdan iborat emas. Kishilarning ijtimoiy faolligini mensimaslik, haqiqiy mehnatkashni boqibegʻam boqimandadan farqlamaslik jamiyat ravnaqining zavolidir. Lekin aynan shu masalada ham allomaning insonparvarligi yaqqol sezilib turadi. U oʻzining "Tadbir-e manozil" asarida "xizmatkorlarni oʻzingga yaqin tut, ularni siltab tashlama, ularning ehtiyojlari toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qil, ularga nisbatan qahr-gʻazabnok boʻlma, ular bilan xuddi doʻstlar bilan boʻladigan munosabatda boʻlgin, ularning baxtsizlik onlarida yolgiz qoldirma, chunki ular ham insonlardir", - deydi[13].

Mutafakkir Qurʼoni karim va hadisi sharif anʼanalariga toʻla amal qilgan holda nikoh masalasiga alohida eʼtiborni jalb qiladi. Hukmdor birinchi galda nikoh toʻgʻrisidagi qoidalarga toʻla toʻkis amal qilishining oʻta muhim ekanligini aslo unutmaslik lozim, chunki nikoh munosabatlari: son zotining uzluksiz davom etishini taʼminlaydigan muhim omildir.

Bundan tashqari, er-xotin oʻrtasidagi munosabatlarning qaltisligi odamlarning imon-eʼtiqodini, jamiyat maʼnaviy-ruhiy holatini izdan chiqaradi, uning tanazzulini tezlashtiradi.

Shunday ekan, mutafakkir nikohni bekor qilish holatlarini imkon boricha murakkablashtirishni maslahat beradi. Buning uchun ayollarga nikohni bekor qilishni qozilar hukmi orqali hal qilish, erkaklarga esa bunda sezilarli miqdorda jarima toʻlashni joriy qilish orqali ularning oila, ja-miyat oddidagi masʼuliyatini shakllantirish zarur. Bundan tashqari, mol-mulkka merosxoʻrlik va nasl-nasab masalalarida har qanday oʻzaro kelishmovchiliklar va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan ixtiloflarning oldini olish maqsadida nikoh ochiqchasiga oʻtkazilishi shart. Er-xotin qonun asosida farzandlarni yaxshi tarbiyalashni, farzandlar esa ota-onani hurmat qilishlari va ularga itoat etishlari masʼuliyatini oʻz zimmlariga oladilar, chunki ular farzandlar borligʻining sababchilaridir[14].

Ibn Sinoning "Xikmat buloqlari" ("Uyun ul-hikma") asarida taʼkidlanishicha, axloq-odob fani aslida odamlarning baxt-saodatli boʻlishini taʼminlovchi yoʻl-yoʻriqlarni aniq-ravshan koʻrsatib beruvchi amaliy falsafadir. U kishilar xulqi, feʼl-atvori ustidan rahbarlik qiladi. Unga "jon qulogʻi"ni tutgan va amal qilgan kishilar faqatgina oʻzlari uchun yashamasdan, balki boshqalar, jamiyat va uning manfaatlari uchun yashashni maqsad qilib qoʻyishlari lozim. Kishilar oʻzaro doʻst-inoq boʻlib yashashi, oʻzlarida insonparvarlik xislatlarini namoyon etishlari, kamtar-kamsuqum, tejamkor, kuchli irodali boʻlishlari zarur.

Bizning fikrimizcha, Ibn Sinoning inson maʼnaviy kamoloti uning oʻziga bogʻliq, degan xulosasi ilohiyot ilmining bilimdoni Aziziddin Nasafiyning «Haqiqatlar qaymoga» («Zubdat ut-tavorix») asarida oʻz aksini topgan koʻrinadi. Hikmat ahli yaʼni faylasuflarning fikriga koʻra, deydi u, ilm maʼlumga - bilib olingan narsaga boʻysunadi. Binobarin, odamlarning soʻzlari va faoliyat ishlari uchun «oldindan belgilangan oʻlchovlar yoʻq»[15]. Shunday ekan, odam qancha koʻp gʻayrat qilsa, ilimi va darajasi shuncha ortadi. Yaxshilik yoki yomonlik qilish inson ixtiyorida ekanligi ishdur.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino davridan oʻn ikki ars oʻtdi . Bu asr ichida falsafa va ilm fan oldinga ulkan qadamlar tashladi: atomning tilsimotini yechib, uning energiyasini inson xizmatiga qoʻydi, jonli mavjudod hayotini boshqarishga imkon beruvchi irsiylik kodi aniqlandi, biologiya jonsiz narsadan jonli narsa yaratish ostonasida turibdi, tibbiyotda

kasalliklarni davolash, ularning oldini olish borsida prinsipial yangi nazariya va metodlar yaratildi, boshqa sayyoralarga kosmik parvozlar real hodisaga aylanmoqda. Zamonaviy fan – texnikaning shunday shiddatli taraqqiyoti bilan taqqoslaganda Ibn Sinoning inson, uning ahloqiy qarashlari anchagina eskirganday tuyuladi. Lekin, inson o‘z ma’naviyatini shakllantirishda ajdodlaridan qolib kelayotgan bebaho boyliklardan ruhiy oziq, kuch quvvat oladi, ularga tayanadi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarimizni shakllantirishda Ibn Sinoning bilim boyliklaridan, tajriba va tarihiy saboqlaridan, odob – ahloq, ta’lim – tarbiyaga oid o‘g‘itlari va yo‘l – yo‘riqlaridan foydalanishimiz foydadan xoli bo‘lmaydi. Ularning ko‘p jihatlari hozirgi yangi O‘zbekiston sharoitida qayta tiklanayotgan sharqona axloq-odob meyorlarining qaror topishiga sobit qadam ila xizmat qilishi shubhasizdir.

#### ADABIYOTLAR

1. А.В.Смирнов. Философская мысль исламского мира. Исследования Том-1.Москва: 2009.С.531.
2. У.Каримов. М. Этические проблемы в антропологии Ибн Сины. Автореферат дисс ...канд..филос. наук. – Душанбе, 2009. –22с.
3. А.Ирисов. Абу Али Ибн Синонинг “Саломон ва Ибсол” киссаси. Тошкент: “Фан”, 1973. – 50.Б.
4. С.Рахимов. Абу Али Ибн Сино таълим ва тарбия ҳақида. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1967. – 77.Б.
5. Абу Али Ибн Сина. Избранные произведения. М.: Мысль. Т.1. С.92.
6. Абу Али Ибн Сина. Избранные произведения. М.: Мысль. Т.1. С.97.
7. Абу Али Ибн Сино. Фалсафий киссалар. – Т., 1963. 35.Б.
8. А.Ирисов. Ибн Сино фалсафий киссалар.1973.26.Б.
9. А.Ирисов. Ибн Сино фалсафий киссалар.1973.30.Б.
10. М.Қодиров Марказий Осие ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. Тошкент: ТДШИ нашриёти, 2010.34.Б
11. Ибн Сино “Тадбир-э манозил”. Техрон, 4-бет.
12. Ибн Сино. Китоб ан-нажот. Қоҳира, 33-бет.
13. Ибн Сино “Тадбир-э манозил”. Техрон, 7-бет.
14. Ибн Сино. Китоб ан-нажот. Қоҳира, 36-бет.
15. Ибн Сино “Тадбир-э манозил”. Техрон, 7-бет.